



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Masharipova Umidaxon Xudoyberganovna¹
Kenjaev Farxod²

¹Nukus DPI, stajyor - o'qituvchi

²Nukus DPI, stajyor - o'qituvchi

"BOBURNOMA"DA QO'LLANILGAN MAQOLLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Annotation: The article gives a review on the thematic lexical-semantic classification of some lexical units, as well as on Beaubourg's verbal skills, his ability to methodologically use folk proverbs.

Key words: lexical unity, stylistics, world civilization, turkish prose, lexical unity of expression

Kirish

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar turganligi o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining tobora shakllanishida, inson tafakkurining o'zgarishida fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, shuningdek, o'zbek tili va til madaniyatining rivojlanishi asosiy mezon sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Ma'lumki, o'zbek xalqi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan va bugun ham jahonshumul yutuqlarni qo'lga kiritayotgan qadimiy turkiy xalqlardan biri sanaladi. XVI asr o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi asosiy masalalardan biri tilning soddaligi, uslubning ravonligi uchun kurashdir. Buyuk mutafakkir alloma Zahiriddin Bobur o'zining memuar asari bo'lgan "Boburnoma" sida bu masalaning



targ'ibotchisi bo'ldi. "Boburnoma" matni hamda Bobur nazmiyatida tayyor holdagi til birligi sifatida qo'llangan maqollar ayni shu usulda yetib kelganligi tabiiydir.

Bobur xalq og'zaki ijodini juda sevgan, ardoqlagan. Bu uning shoh asari "Boburnoma" da yaqqol ko'rinadi. Bu o'rinda akademik Bartoldning "Boburnoma" siyosiy kurashlar hujjatigina bo'lmay, turkcha prozaning eng yaxshi asarlaridan biri deb ta'kidlashi bejiz emas. Adib safar davomida xalq og'zaki ijodining nodir namunalarini to'plagan, "Boburnoma" ni yozish jarayonida ulardan fikr bayoni davomida nutq vaziyati taqozasida ulardan uslubiy maqsadlarda o'rinni foydalangan.

Ta'kidlash joizki, faqat o'zbek maqollarinigina emas, balki fors-tojik tili maqollarini ham san'atkorona qo'llagan. Ular, shubhasiz, asar tili va uslubining ommaga tushunarli bo'lishi uchun xizmat qilgan. Masalan, o'zbekcha: *Ko'zlarini tuz tutdi. Dushman ne demas, tushga ne kirmas. Tojikcha: march bo yoron surast-Do'stlar bilan birga bo'lib o'lmoq to'ydir.*

Matnda qo'llangan maqollar voqealar tasviridan umumlashgan xulosa chiqarish, ko'pincha personajlar xarakterini ochish uchun xizmat qilgan, boshqacha qilib aytganda, tayyor til birligi sifatida ifoda-tasvirning lug'aviy birligi vazifasini bajargan. Bobur o'z fikrini kitobxonga to'laroq yetkazish uchun xalq maqollari bilan birgalikda yumor va askiyadan ham foydalanadi.

«Xo'jandning ovlog'i va qushlog'i bisyor yaxshidir. Oq kiyik, bug'u, maral, qirgo'vul va tovushqoni ko'p bo'lur. Havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgan ko'p bo'lur. Andoq rivoyat qilurlarkim chupchuq bezgan bo'lg'on dur.

Keltirilgan matnlarda tayyor nutq birliklari, albatta, biror voqea-hodisa tavsifi munosabati bilan qo'llangan. Ular o'sha tavsifning yo tasdiqi, yo iqroriga xizmat qilgan.

Shuningdek, ayrim voqealar tafsilotini badiiy-hissiy ta'sir kuchini oshirish maqsadida maqol, hikmat ya'ni aforizm darajasiga ko'tarilgan, turmush voqealaridan jiddiy xulosalar chiqarilgan o'rinlar "Boburnoma" ning yana ham o'qimishli bo'lishini ta'minlagan. Masalan, Ulug'bekning o'z o'g'li Abdullatif tomoni o'ldirilishi tasvirida berilgan baytning mazmuni aforizm ekanligi shubhasiz, aksiomadidir.

Demak, o'rganilayotgan memuarida tayyor til birliklari: maqollar, maqol-hikmat, aforizmlaridan fikr bayoni nutqiy taqozasi darajasida mohirona foydalangan kim, bular kitobxonda o'sha vaqea - hodisaning realligi ishonchini oshiruvchi uslubiy vositalardir. O'z navbatida, Bobur ijodiyotiga xalq og'zaki ijodi - folklor ta'siridir.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, "Boburnoma"da "Devonu lug'atit turk"ning bir qadar ta'siri seziladi. Bobur Mahmud Koshg'ariyning kitobidagi ba'zi maqollardan foydalangan bo'lishi mumkin. Lekin uning bu asar bilan tanish

yoki tanish emasligi ilmiy adabiyotlarda ma'lum emas. Koshg'ariy asaridagi ba'zi maqollar qisman o'zgargan holda bo'lsa-da "Boburnoma" da uchraydi.

Maqola muallifi bu fikrini isbotlash uchun Mahmud Koshg'ariydan «Yalang'uz o'g'li yo'qolur ezgu oti qolur» (mazmuni: Odam bolasi o'lib ketadi, agar yaxshilik qilgan bo'lsa, yaxshi nomi qoladi, degan bir turkiy maqolning ayni mazmunini tojikcha Boburda: «Zikri nomero hakimon umri soniy guftand (mazmuni: Shuhrat bilan yodlanishi hokimlar ikkinchi umr demishlar).

Biz mazkur fikrga qo'shilgan holda maqollar avloddan - avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelishini ta'kidlab, XVI asr vakillariga ham shu yo'sinda o'tib kelgan va ulardan o'sha davr turk va tojik donishmandlari o'z ijodiyotida foydalanganlar, jumladan, har ikki maqollardan xalq og'zaki ijodi orqali (eshitganlari) bahramand bo'lgan va ulardan o'zining nasriy va nazmiy ijodiyotida foydalangan bo'lishi, shubhasiz, demoqchimiz.

Boburning xalq maqollari - folklor materiallaridan foydalanishi yuzasidan xulosa qilib aytganda adib ijodida xalq og'zaki ijodidan namunalar beqiyosdir. Ular Bobur asarlari tilining soddaligi, uslubining ravonligini ta'minlagan faktlardan biridir. Ayni ma'noda maqol-hikmatlar jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga maftun qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov Q. Morfolgik usul bilan sifat yasalishi// Kitob. XV-XVI asrlar morfologiyasi. Toshkent, «Fan», 1990 y.
2. Nazarova X. Bobur va o'zbek adabiy tili. Toshkent, «Fan», 1983
3. To'ychiyoev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. «O'qituvchi», Toshkent, 1996 yil
4. Hasanov H. Zahriddin Muhammad Bobur (hayoti va geografik merosi) «O'zbekiston», Toshkent, 1996 yil.